



«TASDIQLAYMAN»
“O‘zagroinspeksiya” boshlig‘i,
Hay‘at raisi

A.Vaxabov

2025-yil 27-oktabr

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui
ustidan nazorat qilish inspeksiyasining

Hay‘at yig‘ilishi

BAYONI

№ HB-14-25

2025-yil 24-oktabr

Toshkent shahri

Hay‘at raisi:

A.Vaxabov – Inspeksiya boshlig‘i, Hay‘at raisi

Yig‘ilishda
qatnashganlar:

Inspeksiyaning markaziy apparati tarkibiy tarmoqlari rahbarlari, barcha xodimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari rahbarlari, o‘rinbosarlari, tuman bo‘limlari hamda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifatini baholash markazi” mas‘ul xodimlari.

Kun tartibi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qaroriga asosan 2025-yilning o‘tgan 9 oyida va joriy yilning oktabr oyida qonunchilik hujjatlaridagi topshiriqlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2025-yil 15-oktabrdagi 107-son bayoni muhokamasi.

3. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 170-son qarori ijrosi yuzasidan Inspeksiyada amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

(Vaxabov, Hasanov, Pirnazarov, Mamasoliyyev, Karimov, Axmedov, Mirzaaxmedov, Kurbanbayev, Maxmudov, Yusupov, Maqsudov, Narziyev, Abdullayev, Donayev, Xudaynazarov, Karimov, Achilov, Shodiyev, Qorjovov, Sadikov, Xodjimotov, Ismailov, Vaxabov)

Hay‘at raisi A.Vaxabov kirish so‘zi bilan yig‘ilishni ochib berdi va yig‘ilish qatnashchilarini kun tartibi bilan tanshitirib o‘tdi.

Kun tartibidagi birinchi masala - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi **PF-6166**-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi **PQ-5132**-sonli qarori ijrosi hamda 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-sonli Farmon ijrosi yuzasidan 2025-yilning o‘tgan **9 oyida** va joriy yilning **oktyabr** oyida qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Axborot tahlil, ijro intizomi va ma‘muriy amaliyot boshqarmasining hisoboti eshitildi.

Xususan, 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida **584** ta hujjat, shundan, O‘zbekiston Respublikasining **68** ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **88** ta Farmon va farmoyishlari, **142** ta qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining **286** ta qarorlari ro‘yxatga

olinib, ijrosiga mas'ul xodimlar belgilanganligi va ushbu hujjatlar tarkibiy va hududiy bo'linmalarga elektron shaklda yetkazilganligi ta'kidlandi.

Shuningdek, "Ijro.gov.uz" tizim orqali kelib tushgan qonunchilik hujjatlari bilan ishlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 10 fevraldagi **PF-6166**-sonli Farmoni, 31 maydagi **PQ-5132**-sonli qaror hamda joriy yilning 25 iyulidagi "Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" **PF-117**-son Farmoni talablaridan kelib chiqib, soha faoliyatiga tegishli har bitta qonunchilik hujjati ijrochilarga yetkazilib, nazorat rejalari ishlab chiqilib, ijrosi ta'minlab kelinayotganligi ma'lum qilindi.

Xususan, joriy yilning **yanvar-sentyabr** oylarida qonunchilik hujjatlarini nazorat qilish tizimi orqali Inspeksiyaga **28** ta me'yoriy hujjat (*10 ta farmon, 9 ta qaror va 9 ta bayon*) bo'yicha **124** ta (*Prezident farmonlarining 75 ta, qarorlarining 32 ta va bayon va boshqa topshiriqlarining 17 ta*) bandlari kiritilib, mavjudlari bilan birgalikda **47** ta hujjat bo'yicha jami **177** ta topshiriq bo'yicha **tegishli ishlar tashkil qilinganligi qayd etildi**.

Olib borilgan ishlar natijasida yanvar-sentyabr oylarida **27** ta qonunchilik hujjati bo'yicha **130** ta (*shu jumladan, o'tgan yillardagi 70 ta va 2025 yildagi 60 ta*) topshiriqlar ijrosi bo'yicha axborotlar tegishli vazirlik va davlat idoralariga kiritilgan hamda **52** ta topshiriqlar **to'liq nazoratdan olinishi ta'minlandi**, **78** ta holatda ijro muddatlari **uzaytirilgan** yoki **ma'lumot uchun qabul qilinganligi bildirildi**.

Ushbu yo'nalishda **har haftaning dushanba va juma kuni** muhokamalar tashkil qilinib, o'tkazilayotgan apparat yig'ilishlari bayonlari rasmiylashtirib borilayotganligiga alohida urg'u berildi.

Yig'ilishda 2025-yilning **25-oktyabr holatida** kelib tushgan hujjatlar **637** tani, shundan, O'zbekiston Respublikasining **71** ta Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **98** ta Farmon va farmoyishlari, **154** ta qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining **313** ta qarorlari ro'yxatga olinib, ijrosiga mas'ul xodimlar belgilanganligi va ushbu hujjatlar tarkibiy va hududiy bo'linmalarga elektron shaklda yetkazilganligi bildirildi.

Bundan tashqari, joriy yilning **oktyabr** oyida Inspeksiyaga **5** ta me'yoriy (**PF-117, PF-177, PF-178, PF-181 va PQ-308-sonli**) hujjat bo'yicha **17** ta topshiriq kiritilganligi va barcha qonunchilik hujjatlari bo'yicha nazorat rejalari ishlab chiqilib, tegishli ijrochilarga yetkazilganligi ta'kidlandi.

Shuningdek, oktyabr oyi ijro muddatli **17** ta, shundan **8** ta asosiy va teng kuchli hamda **9** ta hamijrochi sifatidagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan ishlar tashkil qilinganligi, shu jumladan, amalga oshirilgan ishlar natijasida oy davomida alohida nazoratga olingan **11** ta qonunchilik hujjati bo'yicha **17** ta topshiriqlarining barchasi (**PF-117, PF-87, PF-229, PF-36, PF-178, PF-130-son** farmonlari, **PQ-184, PQ-222-son** qarorlari hamda Prezidentning **30-2025, 36-2025 va 03 PA 1-1403-sonli** bayonlari) bo'yicha axborotlar tegishli davlat organlariga kiritilib, belgilangan tartibda muddatidan oldin nazoratdan yechilganligi yoki keyingi muddatlarga uzaytirilganligi bildirildi.

2025-yil 24-oktyabr holatiga "Ijro.gov.uz" tizimi orqali **42** ta Prezident hujjatlari (**14 ta farmon, 21 ta qaror va 7 ta bayon**) bo'yicha **130** ta (Farmonlar ijrosi yuzasidan **63** ta, qarorlar **59** ta va bayonlar **8** ta) topshiriq ijroda turganligi bildirildi.

Tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2025-yil 24-oktyabrdagi **01/2-7-226** -sonli xat bilan 2025-yil **noyabr oyida "Ijro.gov.uz" tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni** bajarishning kunlik "Kalendar-grafik" va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" **Vazirlar Mahkamasiga** taqdim qilinganligi haqida axborot berildi.

Shuningdek, yig'ilishda "Ijro.gov.uz" tizimi orqali kelib tushgan O'zbekiston Respublikasi **Prezident Administratsiyasi rahbarining, Vazirlar Mahkamasi** hamda **Hukumat komissiyasining** topshiriqlari ijrosi bo'yicha qisqacha axborot berildi.

Jumladan, oktyabr oyida Prezident Administratsiyasi rahbarining 5 ta, Vazirlar Mahkamasining 8 ta topshiriqlari ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlanganligi va bugungi kunda Prezident Administratsiyasi rahbarining 2 ta (muddati o'tgani mavjud emas), Vazirlar Mahkamasining 4 ta (muddati o'tgani mavjud emas) hamda Hukumat komissiyasining 2 ta topshirig'i (muddati o'tgani mavjud emas) ijroda turganligi ma'lum qilindi.

Yig'ilishda 2025-yil **noyabr oyi** ijro muddatli asosiy va teng kuchli ijrochilarning 13 ta qonunchilik hujjatlari bo'yicha 19 ta topshiriqlar nazoratga olinganligi hamda ijrosini muddatidan oldin bajarish yuzasidan ishlar tashkil qilinayotganligi haqida axborot berildi.

Shu davrda Inspeksiya boshlig'ining 66 ta ichki buyrug'i qabul qilinib, shundan 36 ta buyruq bilan 5 ta Prezident Farmoni, 7 ta qaror, 1 ta farmoyish hamda Vazirlar Mahkamasining 22 ta qarori va 1 ta farmoyishlari ijroga qaratilganligi qayd etildi.

Kun tartibidagi ikkinchi masala - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2025-yil 13-sentabrdagi 100-son bayonida muhokama qilingan masalalar bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Xususan, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida, shu jumladan, sentyabr oyida "Ijro.gov.uz" tizimi orqali nazoratga olingan qonunlar, O'zbekiston respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va bayonlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini ta'minlash natijalari hamda joriy yilning oktyabr oyi uchun belgilangan topshiriqlarning ijro etilishi to'g'risida ma'lumotlar bilan tanishtirildi.

Jumladan, nazoratga olingan topshiriqlarning ijrosi bo'yicha tasdiqlangan reja-grafik asosida vazirliklar, idoralar rahbarlarining mas'ul o'rinbosarlari hamda mas'ul tarkibiy bo'linmalar rahbarlari bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasida kunlik qabul qilish hamda individual tarzda hisobotlari eshitiyotganligi, stajirovkalar tashkil qilinayotganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining ijro holati, erishilayotgan ijobiy natijalar hamda sohadagi ayrim kamchiliklarni xalqchil tarzda ochib berishga mo'ljallangan "Alohida nazorat" hamda "Prezident qarorlari – hayotda va nazoratda" rukni ostida ko'rsatuvlar tayyorlanib, "O'zbekiston-24" va boshqa telekanallar orqali namoyish etilayotganligi haqida ma'lumotlar berilganligi bildirildi.

Shu bilan birga, vazirlik va idoralarga topshiriq ijrosi uchun yetarlicha muddat belgilanganiga qaramasdan, ishni to'g'ri rejalashtirmaslik va barvaqt tashkil etmaslik natijasida mutasaddilar tomonidan kechikishlarga yo'l qo'yilayotganligi ta'kidlab o'tildi.

Kun tartibidagi uchinchi masala – Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi "Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 170-son qarori ijrosi yuzasidan Inspeksiyada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov)ning hisoboti tinglandi.

Xususan, joriy yilning 24-oktabrgacha bo'lgan davr mobaynida davlat ro'yxatiga olingan 378 028 dona texnikalardan 145 274 donasi yoki 38 foizi texnik ko'rikdan o'tkazilganligi bildirildi.

Jumladan, Toshkent shaxtida 58 foiz, Navoiy viloyatida 55 foiz, Toshkent viloyatida 50 foiz, Xorazmda 48 foiz, Jizzax va Andijon viloyatlarida 46 foiz texnikalarni tashkil etganligi qayd etildi.

Ayniqsa, Taxtakopir tumanida 96 foiz, Bo'stonliqda 83 foiz, Ulug'norda 82 foiz, Andijon shaxar va Do'stlik tumanida 75 foiz, Zangiota va Samarqandda 73 foiz, Gurlanda

71 foiz, Xivada 70 foiz, Nurota, Asaka, Bog‘ot va Namangan tumanlari va Nukus shahri 69 foiz texnikalar texnik ko‘rikdan o‘tkazilib ijobiy ko‘rsatkichlarga erishilganligi ko‘rsatib o‘tildi.

Biroq, Qashqadaryo viloyatida 25 foiz, Surxondaryoda 27 foiz, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona va Buxoro viloyatlarida 31 foiz texnikalar texnik ko‘rikdan o‘tkazilganligi tanqid qilib o‘tildi.

Jumladan, Chiroqchi tumanida 7 foiz, To‘rtko‘lda 9 foiz, Kosonda 11 foiz, Qiziriqda 12 foiz, Beruniyda 13 foiz, Qo‘shko‘pir, Yozyovon va Nurobodda 14 foiz, Angor, Quva, Mirishkor, Muzrabod, Ellikqal‘a, Yakkabog‘, Qo‘ng‘irot, Paxtaobod va Oltinsoy tumanlarida 15-20 foiz, Buxoro, Pastdarg‘on, Qumqo‘rg‘on, Qamashi, Nukus, Qonliko‘l, Qo‘shtepa, Farg‘ona, Uchko‘prik, Ko‘kdala, Qarshi, Yuqorichirchiq, Sherobod, Jarqo‘rg‘on Jomboy tumanlarida 20-25 foiz texnikalar texnik ko‘rikdan o‘tkazilib, salbiy ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Shuningdek, mazkur qarorda 2023 yil 1 sentyabrdan boshlab jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo‘lgan texnikalar (147 875 dona) texnik ko‘rikdan o‘tkazish vakolati yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik sub‘ektlariga ham berilganligi bildirildi.

Biroq o‘tgan davr mobaynida birorta tadbirkor tomonidan ushbu xizmat turini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmaganligi ta’kidlab o‘tildi.

Buning asosiy sabablariga quyidagilarni bildirish mumkin:

Mavjud texnikalar soni kamligi –har yili o‘rtacha jami 160-170 ming ta texnikalar texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi;

Texnik ko‘rik xizmatini tashkil qilish uchun qilingan harajatlar qoplamasligi - bitta texnik ko‘rik xizmatini tashkil qilish uchun yopiq bino, texnik ko‘rik jihozlari, transport vositasi va ishchi hodimlar zarurligi ta’kidlandi.

Texnikalar asosan turgan joyiga borib texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi hisobiga ortiqcha yo‘l harajatlari kelib chiqishi bildirildi.

Inspeksiya tomonidan texnikalarni o‘z vaqtida texnik ko‘rikka o‘tkazilishini ta’minlash maqsadida, texnik ko‘rik muddatiga 5 kun qolganda mulk egasini texnikani texnik ko‘rikka taqdim qilish bo‘yicha uning mobil raqamiga SMS habarnoma yuborish xizmati yo‘lga qo‘yilganligi bildirib o‘tildi.

Shuningdek, vakolat doirasi mulk egalari texnikani texnik ko‘rikka taqdim qilish bo‘yicha ogohlantirish xatlari taqdim etib borilishini aytib o‘tdi.

Boshqarma tomonidan soxadagi barcha hodimlar ishtirokida yig‘ilish o‘tkazilib, yil yakuniga qadar texnikalarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha zarur choralar ko‘rish topshirig‘i berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan taqdim etilgan ma’lumotlar va yig‘ilish ishtirokchilari tomonidan bildirilgan takliflar atroflicha muhokama qilinib, yig‘ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qaroriga asosan 2025-yilning 9 oyi va oktyabr oyida qonunchilik hujjatlaridagi topshiriqlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2025-yil 15-oktyabrdagi 107-son bayoni muhokamasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-apreldagi 170-son qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Axborot tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (**Pirnazarov**), markaziy apparat tegishli tarkibiy tarmoqlari rahbarlari bilan birgalikda "**Ijro.gov.uz**" tizimi orqali kelib tushgan va 2025-yil **noyabr oyida** ijro muddatli qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari, shu jumladan,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi PF-95-sonli farmonining 20a-bandi (mas'ul-O'tbosarov) va 19-fevraldagi PQ-67-sonli qarorining 7.2-bandi (mas'ul-Mirzaaxmedov) ijrosini **30-oktyabrga qadar**,

2025-yil 25-iyuldagi PF-117-sonli farmoni 85-bandi (mas'ul – Pirnazarov), 7a-bandi (mas'ul-Ismoilova) va 2024-yil 24-dekabrda PF-229-sonli farmonning 12.1,12.2,12.3-bandlari (mas'ul-Abdujapparov) ijrosini **1-noyabrga**,

2025-yil 15-maydagi PF-87-sonli farmonning 6-ilova 5.3-bandi (mas'ul-Mamasoliev) **5-noyabrga**,

2024-yil 14-noyabrdagi PF-184-sonli farmonning 3-ilova 7.2-bandi (mas'ul-O'tbosarov) **7-noyabrga**,

2025-yil 18-sentyabrdagi PQ-287-sonli qarorning 12.2-bandi (mas'ul-Maxmudov), 12.1-bandi (mas'ul-Ismoilova), 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-401-sonli qarorning 4.1-bandi (mas'ul-Mamasoliev) **10-noyabrga**,

2025-yil 19-iyundagi PF-95-sonli farmonning 15.3-bandi (mas'ul-O'tbosarov) va 2025-yil 8-sentyabrdagi PF-157-sonli farmonning 17-bandi (mas'ul-Kadirov),

2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli farmonning 2-ilova 2.1-bandi (mas'ul-Maxmudov), 2022-yil 28-maydagi PQ-262-sonli qarorining 2.9-bandi (mas'ul-Axmedov) va 2025-yil 28-avgustdagi 36-2025-sonli bayonning 4-bandi (mas'ul – G'afforov) **15-noyabrga** qadar ta'minlasin.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi tomonidan "**Ijro.gov.uz**" tizimi orqali yuborilgan O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi rahbarining 2024-yil 4-dekabrda 03-RA 2/1-3476-sonli topshirig'i (mas'ul - Maxmudov) 6-bandi ijrosini **1-noyabrga** hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-sonli farmoni bo'yicha Bosh vazir tophirig'i 3.3 va 3.4-bandlari (mas'ul-Ismoilova) ijrosini **5-noyabrga** qadar ta'minlasin.

3. Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosari (Hasanov), Axborot tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (Pirnazarov) Vazirlar Mahkamasi Rayosatinnig majlis bayonida qo'yilgan topshiriqlardan kelib chiqib, har oy hisobot oyidan keyingi oy uchun qonunchilik hujjatlari bo'yicha topshiriqlar ijrosini muddatida va sifatli bajarilishini ta'minlash hamda nazoratga olish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga Kalendar-grafikni o'z vaqtida ishlab chiqish va taqdim etilishini kiritilishi ta'minlasin.

4. Inspeksiya boshlig'ining o'rinbosari (Hasanov), Axborot tahlil, ijro intizomi va ma'muriy amaliyot boshqarmasi (Pirnazarov), markaziy apparatning tarkibiy tarmoq rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy boshqarmalari boshliqlari:

har hafta juma kunlari boshliq o'rinbosari va dushanba kunlari boshliq huzurida o'tkaziladigan yig'ilishlarda ijro intizomiga rioya qilinishi bo'yicha muhokamalar o'tkazib borilishi;

elektron hujjat aylanish tizimlaridan to'liq foydalanish va hujjatlar hamda murojaatlar bilan ishlash borasidagi bildirgilariga asosan ijro muddatlariga rioya qilmaganlar bo'yicha qat'iy choralar ko'rish bo'yicha taklif kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

5. Texnika holatini nazorat qilish boshqarmasi (A.Mirzaaxmedov), Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy boshqarmalari boshliqlariga, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-aprelda "Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-

qurilish texnikalaridan foydalanish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 170-son qarori ijrosi ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlar belgilasin.

6. Mazkur yig'ilish qaror ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.